



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

BOBUR G'AZALLARIDA ALLYUZIYA ALLUSION IN BABUR'S GHAZALS

Xomidova Mahfuzaxon Farhodjon qizi

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti.

E-mail: mahfuzaxon.xomidova@mail.ru

ORCID: 0000-0002-3559-0448

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026/EQOE7588](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026/EQOE7588)

Annotatsiya. Mumtoz asarlarda, xususan, Bobur lirikasida matn ichida boshqa matnga aloqador parchalarni turli usullarda keltirish ko'p uchraydi. Intertekstuallik sifatida baholanadigan bu hodisa she'riy matnlarda allyuziya shaklida keng namoyon bo'ladi. Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida ham allyuziyaning alohida o'rnini bor. Biz quyida shoirning ayrim g'azallaridagi allyuziv nomlarni tahlil qilamiz va uning she'riy matndagi asosiy vazifalari haqida fikr yuritamiz.

Kalit so'zlar: g'azal, intertekstuallik, allyuziya, badiiy matn, mumtoz adabiyot.

Annotation. In classical literary works, particularly in Babur's lyric poetry, the inclusion of fragments related to other texts within the poetic text occurs frequently through various methods. This phenomenon, evaluated as intertextuality, is widely manifested in poetic texts in the form of allusion. Allusion occupies a distinctive place in the creative works of Zahiriddin Muhammad Babur as well. In the present study, we analyze allusive names found in some of the poet's ghazals and discuss their main functions within the poetic text.

Keywords: ghazal, intertextuality, allusion, literary text, classical literature.

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi o'zbek mumtoz adabiyotida o'chmas iz qoldirgan va o'z o'rniga ega boy ma'naviy merosdir. U buyuk sarkarda, shoh va mutafakkir bo'lish bilan birga nozik didga va yuksak fasohatga ega o'zbek tilining bilimdoni ham edi. Shu bois Bobur ijodi eski o'zbek adabiy tilining eng yorqin namunalaridan biri sifatida baholanadi. Ayniqsa, Bobur ijodida yetakchi o'rin tutuvchi g'azal janrida ishq, hijron, vatan, yurt sog'inchi hamda hayotning o'tkinchiligi kabi mavzular chuqur va samimiy tilda ifodalangan. Shoir mumtoz adabiyot an'alariga suyangan holda, o'zining shaxsiy kechinmalari, his-tuyg'ularini va tarixiy tajribasini nazmiy obrazlar orqali badiiylashtiradi. Bu jarayonda esa o'z tilining barcha imkoniyatlaridan unumli foydalanadi. Shu

nuqtayi nazardan uning ijodini o'rganish o'sha davr o'zbek tilining keng imkoniyatlari haqida xulosa qilishimizga yordam beradi.

Bobur g'azallarining muhim xususiyatlaridan biri badiiy san'atlardan va ramziy obrazlardan mahorat bilan foydalanishida ko'rinadi. U tarixiy, diniy va adabiy timsollar orqali g'azal ma'nosini chuqurlashtirib, o'quvchini keng madaniy kontekst bilan yuzlashtiradi. Shu jihatdan Bobur she'riyati nafaqat badiiy-estetik, balki intellektual qimmatga ham egadir. Biz quyida intertekstuallikning bir turi hisoblangan allyuziya hodisasini Bobur ijodidagi o'rnini ayrim g'azallaridan olingan misollar yordamida ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, badiiy matnda intertekstuallik turli shakllarda namoyon bo'ladi. Badiiy matnda tarixiy voqea, afsona va rivoyat qahramonlari, shaxslarning nomini keltirish ham intertekstuallik hodisasining bir turidir. Badiiy matnning hajmiga, turiga ko'ra ham intertekstuallikning qo'llanilishi har xil bo'lishi mumkin [Arnold, 1997: 23].

Allyuziya matn ichida boshqa shaxs, voqea, asar yoki madaniy hodisaga bilvosita yoki to'g'ridan-to'g'ri ishora qilish san'ati sifatida qaraladi [Fateeva, 1998: 25]. Bu vosita orqali yozuvchi yoki shoir o'quvchidan avvaldan ma'lum bo'lgan madaniy yoki tarixiy bilimga tayanadi, natijada matn mazmuni bir nechta qatlamda ochiladi. Allyuziya matn mazmunini chuqurlashtiradi, shoir yoki yozuvchining o'zidan oldin yaratilgan matnlar bilan adabiy dialogga kirishini ta'minlaydi. Mumtoz she'riyat namunalari: g'azal, ruboiy, tuyuq, qit'a kabilarda esa asosan intertekstuallikning allyuziya shakli keng qo'llaniladi. Tarixiy, diniy, adabiy va mifik qahramonlar nomi ular bilan bog'liq matnga ishora qilib, intertekstuallikni hosil qiladi.

Bobur g'azallarida intertekstuallik asosan allyuziv nomlar shaklida ko'p uchraydi.

*Xati labig'a tutash bo'lsa, ey ko'ngul, ne ajab,
Ki **Xizr** chashmayi hayvong'a rahnamoyedur.
Yarar bu xasta ko'ngul dardig'a o'qin yarasi,
Magarki har yarasi yorning davoyedur.*

Bu g'azalda abadiy hayot timsoliga aylangan Hazrati Xizr a.s. haqidagi afsonaga ishora mavjud. Yor jafosidan ozorlanayotgan oshiq holatiga mos ravishda uning sifatini aks ettiruvchi birikma – *chashmayi hayvon* birgalikda qo'llangan. Bu birikma *obi hayvon*, *tiriklik suvi* kabi sinonimlarga ham ega bo'lib, o'zbek mumtoz adabiyotida juda faol qo'llangan. Bobur ham xalq ichida mashhur afsonaga ishora orqali o'zining lirik qahramoni holatini aniqroq tasvirlashga, ta'sirchan ifodalashga erishgan. Uning “*Borida*” radifli g'azalida ham Xizr allyuziyasini uchratamiz:

*Ne ko'ray to'bini qaddi xushxiroming borida,
Ne qilay sunbulni xatti mushfoming borida.
Kim **Xizr** suyin og'izlag'ay labingning qoshida,
Kim **Masih alfozidin** degay kaloming borida.*

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Xizr antroponimi obi hayvon, suv, suy, chashmayi hayvon so'z va birikmalari bilan birga keladi. Bu g'azalda Bobur *Xizr suyi* birikmasidan foydalanib, uning hayot baxsh etish xususiyati haqidagi afsona matniga o'z misralarini bog'lay olganini ko'rishimiz mumkin. Bu g'azalda el ichida yana bir mashhur rivoyatga ishora qiluvchi allyuziv birlik mavjud. Iso Masihning ham mangu barhayotligi va uning jon baxsh etuvchi so'zlari haqidagi afsona va rivoyatlar G'arb va Sharq xalqlari orasida juda mashhur bo'lib, mumtoz adabiyotda Iso, Masih kabi nomlarga *kalom*, *alfoz*, *lafz* kabi so'zlarni qo'shib foydalanish an'anaga aylanib ulgurgan edi. Alisher Navoiy ijodida ham bu allyuziya juda ko'p o'rinlarda uchraydi. Bobur ham bevosita ana shu an'anaga sodiq qolib, birinchi baytdagi fikrini yanada mustahkamlash maqsadida *Masih alfozi* birikmasidan intertekstual birlik sifatida foydalangan.

Bobur ijodining, ayniqsa, g'azaliyotining ishq-muhabbat tarannum etilgan namunalari juda ko'p va betakroridir. Ularda intertekstual birlik sifatida asosan, *Farhod*, *Majnun*, *Layli*, *Shirin* kabi muhabbati doston bo'lgan qahramonlar uchraydi. Shoir Bobur g'azallarida o'z holatini, yorining go'zalligi-yu, xarakterini ana shu afsonaviy qahramonlarga qiyoslaydi, bu taqqoslash orqali esa bilvosita o'quvchi uchun yaxshi tanish bo'lgan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostoni voqealariga, qahramonlar holatiga ishora qiladi.

Kular erdim burun Farhodi miskin dostonig'a,

Bu Shirindurki oning birla-o'q hamdoston bo'ldum.

Yana bir g'azalda esa Bobur o'zining holatini hatto Majnun va Farhodnikidan-da ustun qo'yadi, ya'ni har ikki qahramonning ishq yo'lida qanday azoblarga duchor bo'lgani barchaga ma'lum. Boburning lirik qahramoni esa ulardan ham yomon ahvolda:

Bir pariy men telbani husnig'a moyil qilg'udek,

Ko'zum ichra yer tutub ko'nglumda manzil qilg'udek.

Ko'nglumizga javr behad qildi ul nomehribon,

Jonima yuz ming g'amu mehnatni hosil qilg'udek.

Qilmadi Farhod-u Majnun o'zni rasvo men kibi

Kim, bu nav' ish ish emasdur hech oqil qilg'udek.

Ul pariy ishqida Bobur jon berib, ey ahli ishq,

Ishq atvorini ishq ahlig'a mushkil qilg'udek.

Bunda *Qilmadi Farhod-u Majnun o'zni rasvo men kibi, Kim, bu nav' ish ish emasdur hech oqil qilg'udek* bayti g'azalning allyuzion markazi hisoblanadi. Shoir o'z holatini ishq tarixidagi mashhur oshiq obrazlari Farhod va Majnun bilan qiyoslaydi. Ularning nomi ochiq aytilgan bo'lsa-da, maqsad voqeani eslatish emas, balki o'ta oshiqona holatning mezonini belgilashdir. Shoir o'z ishqini ularnikidan ham “rasvoroq” deb baholaydi. Bu yerda allyuziya orqali ishqning aql bilan o'lchanmaydigan, mantiqdan tashqari hodisa ekanligi ta'kidlanadi.



Umuman olganda, Bobur g‘azallari tilining soddaligi, tashbehlarining orginalligi bilan o‘quvchini o‘ziga qanchalik rom qilsa, unda qo‘llanilgan intertekstual birliklar ham shunchalik asarning xalqchilligini oshirishga, o‘quvchining esa qomusiy bilimlarini to‘ldirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida allyuziya muhim badiiy-uslubiy vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir tarixiy, diniy va adabiy manbalarga ishora qilish orqali badiiy matnning mazmun doirasini kengaytiradi hamda o‘quvchini chuqur madaniy va tarixiy, diniy kontekstga olib kiradi. Bobur g‘azallarida allyuziya nafaqat estetik vazifa bajaradi, balki uning fikrlarini yetkazuvchi hamda g‘oyaviy yuk tashuvchi muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Арнольд И.В. Семантика. Стилистика. Интертекстуальность. Текст. И.В. Арнольд. Сб. ст. – СПб, Изд-во С.-Петербур. ун-та, 1997. – 443 с.
2. Фатеева Н.А. Типология интертекстуальных элементов и связей в художественной речи Текст, *Известия АН. Серия литературы и языка*, 1998. - №5. – С. 25 - 38.
3. Kristeva J. Bakhtine le mot, le dialogue et le roman Texte. J. Kristeva Critique. 1967. № 239. – 465 p.
4. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. Fil. fan. doktori diss. – Toshkent, 2010.
5. <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-mumtoz-sheriyati/bobur/>
6. Элова Д. Ўзбек тили корпуси бирликларининг услубий тегларини яратиш тамойиллари ва лингвистик таъминоти. Фил. фан. бўйича ёзилган дисс. автореф. Тошкент–2022.